

**IKKI TILLI MUHITDA TA’LIM: BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI VA
RUS (YOKI INGLIZ) TILI O’RTASIDAGI MUVOZANAT, TIL
O’RGANISHDAGI MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR**

Nosirova Zulfizar Ismatulla qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

Boshlang‘ich ta’lim yo ‘nalishi 4-kurs talabasi

ANNOTATSIYA: *Mazkur maqolada ikki tilli muhitda ta’lim olayotgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ona tili bilan bir qatorda rus yoki ingliz tilini o‘rgatishdagi muammo va imkoniyatlar tahlil qilinadi. Ikki til orasidagi muvozanatni ta’minalashda o‘qituvchining metodik yondashuvi, o‘quv muhitining tilga bo‘lgan munosabati, o‘quvchilarning psixologik holati va ijtimoiy madaniy omillar inobatga olinadi. Maqolada shuningdek, til o‘rganish jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolar – fonetik va grammatik qiyinchiliklar, til aralashuvi (interferensiya), motivatsiya yetishmasligi kabi holatlar tahlil etilgan. Shu bilan birga, bilingval (ikki tilli) muhitda ta’limning ijobjiy jihatlari – o‘quvchilarning kognitiv rivoji, madaniyatlararo kompetensyaning shakllanishi va ko‘p tilda fikrlash qobiliyati rivojlanishiga alohida e’tibor qaratilgan. Muallif tomonidan amaliy tajriba, ilg‘or xorijiy yondashuvlar hamda milliy ta’lim tizimidagi real holatlar asosida taklif va tavsiyalar berilgan.*

KALIT SO‘ZLAR: *ikki tilli muhit, bilingval ta’lim, boshlang‘ich sinf, ona tili, rus tili, ingliz tili, til o‘rganish, interferensiya, til muvozanati, motivatsiya, lingvistik rivojlanish, madaniyatlararo kompetensiya, zamonaviy metodika*

Bugungi globallashuv davrida xorijiy tillarni bilish har bir fuqaroning shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyati uchun zaruriy omilga aylanib bormoqda. Ayniqsa, yosh avlodda kichik yoshdan boshlab bir nechta tilda erkin fikrlash va muloqot qilish malakasini shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston ta’lim tizimida ikki tilli (bilingval) ta’lim modelini bosqichma-bosqich joriy etish, boshlang‘ich sinflardan boshlab o‘quvchilarda ona tili bilan birga rus yoki ingliz tilini o‘rgatish masalasi kundan kunga ko‘proq e’tiborni tortmoqda.

Ona tili – bu bolaga ona quchog‘idanoq singdiriladigan til bo‘lib, uning shaxsiyati, tafakkuri va milliy o‘zligining negizini tashkil etadi. Shu bilan birga, rus va ingliz tillari esa zamonaviy axborot maydoniga kirish, xalqaro hamkorlik va texnologik taraqqiyotda faol ishtirok etish imkonini beradi. Shunday ekan, bu ikki (yoki undan ortiq) til o‘rtasida

muvozanatni topish, ularni o‘zaro raqobat emas, balki uyg‘unlik asosida o‘rgatish muhim vazifa bo‘lib qolmoqda.

Ikki tilli muhitda ta’lim berish nafaqat didaktik, balki psixolingvistik, madaniy va ijtimoiy yondashuvni ham talab qiladi. Bolalarda bir vaqtida ikki tilni o‘rganish jarayoni murakkab bo‘lishi mumkin: ular til qoidalarini aralashtirib yuboradi, grammatic tuzilmalarda chalkashadi yoki ayrim hollarda bir tilga bo‘lgan qiziqishi ikkinchisiga bo‘lgan munosabatni susaytiradi. Ammo, shu bilan birga, bu jarayonda ko‘plab imkoniyatlar ham mavjud: bolalar ko‘p tilda muloqot qilishni o‘rganadi, dunyoqarashi kengayadi, tafakkurining moslashuvchanligi va ijodiy salohiyati rivojlanadi. Ushbu maqolada aynan shu muammo va imkoniyatlar o‘rtasidagi muvozanat, ularni pedagogik jarayonda hisobga olish zarurati va bunda zamonaviy metodik yondashuvlarning o‘rnini keng yoritiladi.

Ikki tilli muhitda ta’lim berish zamonaviy pedagogikaning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ayni paytda ko‘plab mamlakatlarda, xususan, O‘zbekistonda ham ta’lim tizimiga xorijiy tillarni, ayniqsa rus va ingliz tillarini erta yoshdan boshlab o‘rgatish tendensiyasi kuchaymoqda. Bu, bir tomonidan, global mehnat bozori, ilm-fan, texnologiya va madaniyatlararo muloqotga kirish uchun zarur bo‘lsa, ikkinchi tomonidan, yosh avlodni kognitiv va til jihatidan rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tilni o‘rganishga bo‘lgan tabiiy qobiliyat yuqori bo‘lsada, bu jarayonni samarali tashkil etish uchun maxsus metodik yondashuvlar zarur bo‘ladi. Chunki bu yosh davrda bolaning psixik va til faoliyati hali shakllanish jarayonida bo‘ladi, va bir vaqtning o‘zida ikkita tilni o‘rganish ularda aralashish, interferensiya va grammatic chalkashliklar kabi muammolarga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, ona tilini yetarlicha egallamagan bolaga ikkinchi tilni o‘rgatish uning nutq faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ehtimoli yuqori.

Biroq ikki tilli ta’limning ijobiy jihatlari ham ko‘p. Masalan, xorijiy tilda bilim olish bolaning tafakkurini kengaytiradi, ularni boshqa madaniyatlarni anglashga, global dunyoqarashga ega bo‘lishga undaydi. Shuningdek, ko‘p tilda fikrlashga o‘rgangan bola yangi bilimlarni o‘zlashtirishda tezroq muvaffaqiyatga erishadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bilingval muhitda o‘sigan o‘quvchilarda muammoli vaziyatlarda echim topish qobiliyati, eslab qolish darajasi va kommunikativ salohiyati yuqori bo‘ladi.

Til muvozanatini saqlash esa bu yerda asosiy omillardan biridir. Boshlang‘ich sinfda o‘quvchining asosiy til bazasini ona tili tashkil etishi kerak. Chunki o‘z fikrini to‘liq va to‘g‘ri ifoda etish, matnni tushunish, yozma va og‘zaki nutqda mantiqiylikka erishish, avvalo, o‘z tilini mukammal o‘zlashtirishga bog‘liq. Shu sababli, ikkinchi til (rus yoki ingliz) ona tili bilan raqobatga emas, balki uni to‘ldirish, qo‘llab-quvvatlash funktsiyasiga ega bo‘lishi lozim. Bu muvozanatni ta’minlashda esa o‘qituvchining roli beqiyosdir.

O'qituvchi til o'rgatishda o'quvchilar yoshini, tayyorgarlik darajasini va lingistik imkoniyatlarini hisobga olgan holda individual yondashuvni tanlashi kerak. Masalan, ko'p hollarda grammatik qoidalarni tahlil qilish emas, balki tilni real hayotiy vaziyatlar orqali o'rganish usuli samaraliroq bo'ladi. O'yinlar, rolli mashqlar, hikoyalar tuzish, vizual materiallar bilan ishslash – bularning barchasi bolaning ikkinchi tilni tabiiy va ijobiy qabul qilishiga yordam beradi. Shuningdek, til o'rganishda muhit ham muhim rol o'ynaydi. Agar bolaga maktabda ingliz tilida dars berilsa, lekin maktabdan tashqarida bu til bilan uchrashmasa, unda u bilimlarni tezda unutib qo'yishi mumkin. Shu boisdan, oila, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, o'yinlar va kitoblar orqali tilni faol qo'llash muhitini yaratish zarur. Ikki tilli maktablar, ingliz tilidagi bolalar adabiyotlari, interaktiv platformalar va til kurslari bunda katta yordam beradi.

Ikki tilli muhitda ta'lim berishda yuzaga keladigan asosiy muammolardan biri bu til interferensiyasi – ya'ni, bir tilning grammatik va fonetik xususiyatlarining boshqasiga aralashib ketishi holatidir. Bu holat ayniqsa so'z tartibida, fe'llarning qo'llanilishida va talaffuzda tez-tez uchraydi. Masalan, rus tilini o'rganayotgan bola o'zbek tilidagi so'z tartibini avtomatik tarzda rus tiliga ko'chirishi mumkin. Bu esa tilni to'g'ri o'zlashtirishga to'sqinlik qiladi. Bunday muammolarning oldini olish uchun o'qituvchi til strukturasi va o'quvchi mentaliteti o'rtaqidagi tafovutlarni to'g'ri tushuntira olishi lozim.

Shuningdek, til o'rganishga bo'lgan motivatsiyaning yetishmasligi ham muhim muammodir. Bolada o'rganayotgan tilga nisbatan ijobiy munosabat shakllantirish, unga bu tilni bilishning foydasini tushuntirish va real hayotda undan foydalanish imkoniyatlarini ko'rsatish motivatsiyani kuchaytiradi. Til o'rganish jarayoni qiziqarli, interaktiv va rag'batlanuvchi bo'lishi lozim. Bunda kichik yutuqlar uchun maqtov, o'yinlar asosida rag'bat, guruhiy faoliyatlar yaxshi samara beradi.

Ikki tilli ta'limni tashkil etishda o'qituvchining zamonaviy metodikaga ega bo'lishi, ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganishi, AKT vositalaridan foydalanish ko'nikmasi bo'lishi talab etiladi. Shu bilan birga, maktab ma'muriyati va ota-onalar bilan hamkorlikda bu jarayonni muvofiqlashtirish ham muhim. Faqat o'qituvchining sa'y-harakatigagina emas, balki butun ta'lim muhitining birgalikdagi ishlashiga asoslangan holda til o'rgatish natijador bo'ladi.

Yuqorida tahlillar shuni ko'rsatadiki, ikki tilli muhitda ta'lim samarador bo'lishi uchun til o'rgatish pedagogik yondashuvga asoslanishi, o'quvchilarning individual ehtiyojlari inobatga olinishi, til muvozanati saqlanishi va amaliy qo'llash muhiti yaratilishi zarur. Bu jihatlar ta'minlangandagina ikki tilda ta'lim berish nafaqat til kompetensiyalarini, balki o'quvchining shaxsiy, madaniy va intellektual rivojini ham ta'minlaydi.

Ikki tilli muhitda ta'lism berish boshlang'ich sinf o'quvchilarining lingvistik, kognitiv va madaniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan muhim pedagogik yo'nalishdir. Biroq bu jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun o'qituvchidan yuqori metodik saviya, o'quv muhitidan esa moslashuvchanlik va har tomonlama qo'llab-quvvatlov talab qilinadi. Til o'rghanishda yuzaga keladigan muammolar – til interferensiyasi, grammatik xatolar, motivatsiya yetishmasligi kabi holatlar to'g'ri yondashuv bilan bartaraf etilishi mumkin. Shu bilan birga, ikkinchi tilni o'rgatishda ona tilining asosiy o'rni saqlanib qolishi, bu ikki til bir-birini to'ldiruvchi, uyg'un komponentlar sifatida ko'rlishi lozim. Amaliy tajriba va ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yaxshi tashkil etilgan ikki tilli ta'lism modeli bolalarda nutq madaniyati, madaniyatlararo muloqot ko'nikmalari, moslashuvchan fikrlash va keng dunyoqarashni shakllantiradi. Natijada, bu o'quvchilar hayotga tayyor, kommunikativ va intellektual jihatdan yetuk shaxslar sifatida shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Ta'lism to'g'risidagi Qonuni. – Toshkent: Adolat, 2020.
2. Jalolova R. va boshqalar. Pedagogika: darslik. – Toshkent: "Ilm ziyo", 2022.
3. Nishonova S. N. Pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlar. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2021.
4. Turdaliyeva M. Bilingval ta'lism: muammo va istiqbollar. // "Ta'lism va taraqqiyot" ilmiy jurnali, 2023, №1.
5. Kadirova D. Ikki tilli maktablarda ona tili o'qitish muammolari. – Toshkent: Fan, 2020.
6. Cummins, J. (2000). Language, Power and Pedagogy: Bilingual Children in the Crossfire. – Multilingual Matters.
7. Baker, C. (2011). Foundations of Bilingual Education and Bilingualism. – Clevedon: Multilingual Matters.
8. <https://edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lism, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy sayti
9. <https://ziyonet.uz> – Ziyonet ta'lism portalı
10. <https://bilingualkidspot.com> – Bilingval ta'lism resurslari (ingliz tilida)